

TOSH ASRI AYRIBOSHLASH AN'ANASIGA DOIR

A.Aloxunov

FarDU katta o'qituvchisi,

M.Hamroliyeva

FarDU magistranti

Annotatsiya

Qadimgi jamiyatlarning taraqqiyotida eng muhim omil – moddiy qadriyatlarining o'zaro almashinuvi bo'lib, uning rivojlanish ko'lamini ko'p jihatdan insoniyat erishgan darajani belgilab beradi. Dastlabki almashinuv (ayriboshlash) va savdo munosabatlari asosan muayyan arxeologik tadqiqotlar davomida ochib beriladi.

Tovar-moddiy boyliklarni almashish jarayoni tosh asridan boshlab ma'lum. Ushbu maqolada tosh asri odamlarining ayriboshlash ishidagi ayrim xususiyatlar ko'rsatib berilgan.

Kalit so'z va iboralar:

Arxeologiya, savdo arxeologiyasi, tosh asri, obsidiy toshi, potlach, ayriboshlash va savdo-sotiq.

Ibtidoiy jamoa tuzumi kishilik jamiyati taraqqiyotidagi eng uzoq davom etgan va eng qadimgi davrdir. Bu davrni yozma manbalar asosida o'rganib bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu borada arxeologiya, etnografiya, antropologiya kabi fanlarning ahamiyati beqiyosdir.

Hozirgi kunda qadim zamonlarda butun insoniyat o'rtasida moddiy buyum, ob'ekt va texnologiyalar qanday taqsimlanganligini o'rganuvchi arxeologiyaning bir tarmog'i bo'lgan «savdo arxeologiyasi» maxsus fan sifatida shakllangan. Savdo arxeologiyasi asosan pul va yozuvning paydo bo'lishi, qo'l mehnatiga asoslangan hunarmandchilik, texnikaviy ishlab chiqarishning rivojlanishi hamda ilk savdo munosabatlarining shakllanishi bilan shug'ullanadi.

Arxeologlar tosh davridagi dastlabki savdo munosabatlari savdogarlarsiz amalga oshiriladigan ayriboshlash ekanligini ta'kidlaydilar[2]. Ilk savdo munosabatlari esa bronza davrida metallurgiyaning paydo bo'lishi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Bu jarayonlarda transport vositasi sifatida yuk hayvonlari: eshak va otlardan xom ashyoni tashish uchun foydalanilgan.

Insoniyat tarixida obsidiy toshi alohida o'rin tutadi. Obsidiy toshining oddiy shisha bilan bir xil jihati shundaki, u ham o'tkir kesuvchi yoki sanchuvchi qirg'oqlarga ega tor bo'laklarga bo'linib keta oladi. Uning bu xususiyati metall mehnat qurollari yoki harbiy qurollar ishlab chiqarishgacha bo'lgan davr ibtidoiy odmalari tomonidan ayniqsa yuksak qadrlangan. Chunki obsidiy toshi oson silliqlanadi. Obsidiydan tosh va jez davrlarida kamon o'qi va nayza uchi, pichoqlar yasalgan, hozirgi davrda ba'zi turlari bezak buyumlar tayyorlashda ishlatiladi[5]. Demak, obsidiy toshiga bo'lgan talab uni izlab topishga undagan.

Mavjud makonlardan yuzlab kilometr uzoqlikda obsidiy tosh bo'laklarining ko'pligi bu joyga tashriflar bir martalik emas, balki muntazam bo'lganligini ko'rsatadi. Obsidiy tosh parchalari yer yuzasida shunchaki to'planganligiga asoslanib, arxeologlar mahalliy qabilalar bu obsidiy toshiga hech qanday huquq da'vo qilmagan, degan xulosaga keladilar.

Olimlar olib borilgan tadqiqotlari natijasida tosh asrining savdo yo'llari orqali, birinchi navbatda, toshga ishlov berish va uni qayta ishlash hamda o'simliklarni etishtirish usullari tarqalganligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surganlar. Deyarli barcha arxeologlar obsidiy toshini ayriboshlash, sovg'a va marosimlar tizimiga kirmaganligi haqida bir to'xtamga kelganlar. Tosh davri odamining mentalitetida tabiiy qazilmalarni berish yoki almashtirish mumkin bo'lmagan. Shuning uchun obsidiy tosh parchalari sovg'alar bilan topilmaydi.

Lekin bu xulosa yevropaliklarning Kongo daryosi bo'yida Afrika qabilalari orasida topilgan «sirtqi savdo»siga biroz ziddir. Bunda bir savdo tomoni o'z mahsulotlarini oldindan belgilangan joyga keltirib qo'yadi. Boshqa tomon tashlab ketilgan bu mahsulotlarni oladi va o'rniga o'zining

mahsulotini qo'yadi. Agar birinchi tomon avvalgi almashinuvdan norozi bo'lsa, keyingi safar kamroq mahsulotni qoldirgan. Shunday qilib, sirtqi savdoda ham xom ashyo, ham ulardan tayyorlangan mahsulotlar ayriboshlangan. Ishlov berilmagan obsidiy toshi shu tarzda tarqalgan bo'lishi mumkin[8.30-72]. Obsidiy toshi savdosi butun dunyodagi arxeologlar tomonidan qayd etilgan. U bugungi kungacha savdoda o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Albatta, obsidiy toshidan tashqari, ibtidoiy odamlar tomonidan almashtirilgan boshqa ko'plab narsalar ham bor edi[9].

Ayirboshlash va savdoning dastlabki shakllari institutsional iqtisodiyotning asoschilaridan biri Karl Polani va amerikalik antropolog Jorj Dalton tomonidan o'rganilgan[3.635-656]. Munozara davomida ular savdoni "rasmiy", ya'ni ekvivalent ayirboshlash va "mohiyatan", ya'ni insoniyatning ilk rivojlanish bosqichida faoliyatning ushbu turiga xos bo'lgan barcha xususiyatlarini qamrab olgan turlariga ajratishni taklif qilishdi. "Rasmiy" savdo har bir savdolashuvchining foyda olishga qaratilgan ratsional qarorlar qabul qilishini qamrab oladi. "Mohiyatan" savdo esa savdoning qanday tashkil etilishini batafsil tavsiflashdan iborat bo'lib, bunda ishtirokchilarning motivlari xilma-xil va doim ham foyda olishga qaratilmagan bo'lishi mumkin.

Tinch okeanining shimoli-sharqiy sohilidagi amerika hindularining bir qator qabilalari orasida mehmonlarning tashrifi ularni qabul qilish jarayonida shaxsiy mulk huquqlarini yo'qqa chiqaradi. Mehmondo'stlik jamoaning har bir a'zosiga o'z haqqini talab qilishga, hech bir narsaga «tegma, bu meniki» deyishiga ruxsat bermagan. Mulkka egalik umumiy dasturxon ustida birlashadi. Shuning uchun, hech shubha yo'qki, oldindan mehmonlardan biror narsa yashirib qo'yilgan.

Ushbu odatga tushuntirishlar keyinchalik tilshunoslar tomonidan berilgan. Rim sivilizatsiyasi rivojlanishining eng qadimgi davrida familia (lot. oila) va pecunia (lot. mol-mulk, pul yo pul miqdori) tushunchalari paydo bo'ldi, keyinchalik bu Rim qonuniga kiritildi. «Familia» – oilaga tegishli bo'lgan va sotilishi, berilishi yoki almashtirilishi mumkin bo'lmagan narsa. «Pekuniya» – sotilishi, hadya qilinishi va almashinishi mumkin bo'lgan narsa. Oila farzandlariga sut beradigan echki «familiya»ni anglatadi. Undan farqli o'laroq, sutidan sotish uchun foydalaniladigan echki – bu pekuniya. Bu echki sotilishi mumkin, lekin birinchisi esa yo'q.

Barcha narsalarni ikki (yoki undan ko'p) toifaga ajratish Melaneziya orollarida mavjud. U erdagi narsa-buyumlar ayollar va erkaklarnikiga bo'linadi. Ayollarning narsalari almashtirilmaydi yoki sotilmaydi. Erkaklar uchun har qanday sovg'alar va savdo bitimlari o'rtasida oraliq aloqa shakllari tizimga solinmagan edi. Ushbu oraliq variantlardan eng mashhuri potlach hisoblanadi. Bu atama shimoliy Amerikaning tinch okeani qirg'oqlarida keng tarqalgan soddalashtirilgan ingliz dialektlaridan birini anglatadi. Ko'pchilik zamondoshlarimiz ushbu atama bilan tanish.

Potlach (sovg'a, inglizcha potlatch) – shimoliy Amerikaning shimoli-g'arbida tinch okeani sohilidagi hindularning sovg'alarini namoyishkorona almashish an'anaviy marosimi. Potlachning asosiy maqsadi jamiyatning boyligini qayta taqsimlash va jamoatchilik bilan aloqalar o'rnatishdan iborat.

Avvaldan to hozirgi kungacha potlach – mehmonlarni uyiga taklif qilib, bayram sababini aytib berish hisoblangan. Ammo mehmonlarning har biri bu faqat bayram emas, balki potlach ekanligini tushunadi[1.349-358]. Va unga bo'sh qo'l bilan borish odobsizlik sanalgan.

Taomilga ko'ra, biror narsa berilganda, u beruvchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi munosabatni o'zgartiradi. Sovg'a oluvchi qaytarib berishga majburiyat hissini tuyadi, beruvchi qaytish sovg'asini kutadi. Kundalik hayotimizda shunday deyishadi: «muhimi sovg'a emas, e'tibor». Biz tosh asrdagi odamdan xuddi shunday bahslashganmi yoki yo'qmi, deb so'rashimiz mumkin emas.

Tinch okeani orollarida yashaydiganlar hali ham har bir narsaning o'z ruhiga ega ekanligi haqidagi g'oyalarga ega. Shuning uchun biror buyum «sovg'a» bo'lishdan oldin insondan ketadi va bu narsaning ruhi qoladi[6]. Ammo zamonaviy ilmiy g'oyalarga ko'ra, sovg'a beruvchida narsalarning ruhlari qolishi tushunarsiz holat. Ibtidoiy odamlar nima uchun sovg'a olgan odamga qiziqish bildirishgan, chunki buning evaziga biror narsa berish majburiyati bo'lgan.

Tosh davrida jahon savdosi mavzusini muhokama qilishda iqlimning va yashash sharoitining yomonlashuvi bilan savdoning yuksalishi muammosi ko'tarilgan. Dastlab, bu hodisa statistik qayd etildi. Va keyin bu ajoyib haqiqatni tushuntirishlar shakllana boshladi[4.1-29].

Ayriboshlashning mavjudligi zaruriy bo'lgan mahalliy resurslarning yo'qligi yoki kamayib ketishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatdan chiqib ketishga imkon bergan[7.339-395]. Tosh asri odamlari ayriboshlash orqali turli ofatlardan qutulganlar. Albatta, ularning almashinuvi bizning zamonamizdan ko'ra murakkabroq edi.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, ibtidoiy davr odamlarini har doim faqat ovqatlanish uchun yashaydiganlar deb hisoblamasligimiz kerak. Ikkinchidan, jahon savdosiga qo'shilmagan qabilalar o'rnini asta-sekin savdo qilishni bilganlar egalladi[4.1-29]. Dastlabki ayriboshlash bu – tosh asri «aql-idrokli odam»ini shakllantirgan ilk savdo munosabatlari edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barnett H.G. The Nature of the Potlatch, *American Anthropologist*, New Series, Vol. 40, No. 3. 1938. – R. 349–358.
2. Clark J.G. Traffic in Stone Axe and Adze Blades. *Economic History Review*. Vol. XVIII. 1. 1965.
3. Dalton G. *Economic Theory and Primitive Society*, Bobbs-Merrill reprint series in the social sciences, Dalton G. (1977) *Economic Anthropology*. *American Behavioral Scientist*. Vol. 20 (5). 1961. – P. 635–656.
4. Horan R.D., Bulte E., Shogren J.F. How trade saved humanity from biological exclusion: an economic theory of Neanderthal extinction, *Journal of Economic Behavior & Organization*, Elsevier, Vol. 58, No. 1. 2005. – P. 1-29.
5. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Obsidian>
6. Mauss M. *The Gift: Forms and Functions of Exchange in Archaic Societies*, Norton Library. 1967.
7. Oka R. Kusimba C.M. The Archaeology of Trading Systems, Part 1: Towards a New Trade Synthesis, *Journal of Archaeological Research*, Vol. 16. 2008. – P. 339–395.
8. Renfrew C., Dixon J.E., Cann J.R. Obsidian and Early Cultural Contact in the Near East. *The Prehistoric Society*. No. 2. 1966. – R. 30–72.
9. Shackley M.S. *Obsidian: geology and archaeology in the North American Southwest*, Tucson, University of Arizona Press, 2005.